



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2024-yil 19-sentabr, payshanba,
107 (23.984)-son

**KUN
HIKMATI**

Qonunlar
insoniyatni hayot
chorrahalarida
to'qnashishdan
asraydi

Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan



www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https://twitter.com/zarnews_uz

Birlashish kelajagimizning muhim sharti

Kasaba uyushmalari faollari va
nuronilar murojaat bilan chiqdi

17-sentabr kuni Toshkent shahrida O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi va O'zbekiston faxriylarining faoliyatini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash "Nuroniy" jamg'armasi vasiylik kengashining qo'shma yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Unda ta'kidlanganidek, 2020-yilda Prezidentimiz tomonidan ilgari aytishga jazm qilinmagan, tan olinmagan, biroq xalqimizni qiyinlab kelayotgan kambag'allik va uning iqtisodiy chegaralari ochiq e'lon qilinib, kambag'allikni qisqartirish borasida keng ko'lami harakatlar boshlandi. O'shanda 7,5 million kishi yoki aholining 23 foizi daromadi kambag'allik chegarasidan pastda edi. O'tgan 4 yil davomida amalga oshirilgan ishlar natijasida bu ko'rsatkich 11 foizga tushdi. Davlatimiz rahbari raisligida yaqinda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida esa kambag'allikni qisqartirish ishlarini keyingi sifat bosqichiga olib chiqish va buni umummilliy harakatga aylantirish bo'yicha yangi tashabbuslar ilgari surildi.

Shu munosabat bilan O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi va "Nuroniy" jamg'armasi O'zbekiston xalqiga murojaat bilan chiqdi.

Murojaatda yurtimizda kambag'allikni qisqartirish Prezidentimiz tomonidan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ajralmas qismi sifatida ilgari surilayotgan, keyingi yillarda maxsus davlat dasturi asosida amalga oshirilayotgan muhim yo'nalish ekanligi va bu xalqimizga bo'lgan yuksak mehr va g'amxo'rlik, O'zbekistonni rivojlangan davlatlar qatoriga ko'tarish yo'lidagi qat'iy harakat ifodasi ekanligi ta'kidlangan. Mazkur ezgu yo'lda birlashish barchamiz intilayotgan kelajakni, oilamiz, farzandlarimizning baxtu saodatini ta'minlashning eng muhim sharti va garovidir, deyiladi unda.

Murojaatda kambag'allikni qisqartirishga to'siq bo'layotgan muammolar ham tilga olingan. Xususan, kasaba uyushmalari faollari va respublika nuroniyolari mazkur muammolarini bartaraf etish, Prezidentning yangi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash maqsadida o'z oldiga qo'ygan o'n uch qismdan iborat vazifalari bilan bo'lishgan. Bunga har bir shahar va tumanda 10 tadan ehtiyojmand oilani kambag'allikdan chiqarish bo'yicha kompleks choralarini amalga oshirish, jumladan, ularning sog'lig'ini tiklash va o'qitishdan tortib, doimiy daromadga ega bo'lishiga qadar ko'maklashish, kam ta'minlangan oilalarning 4 ming nafar farzandini bolalar oromgohida bepul sog'lomlashtirish singari vazifalar kiradi.

Murojaat bilan to'liq
tanishish uchun QR kod



Kecha Ishtixon tumanida bir qator ijtimoiy-iqtisodiy obyektlar foydalan- ishga topshirildi.

Shu munosabat bilan o'tkazilgan tadbirlarda viloyat hokimi va bir qator boshqarma, idoralar rahbarlari, faollari, tuman jamoatchiligi vakillari ishtirok etdi.

Dastlab tumanda yangi bunyod etilgan sport maktabi universal sport zali foydalanishga topshirildi. Loyiha qiymati 5 milliard so'm bo'lgan mazkur inshootda mini-futbol, gandsbol, basketbol, voleybol kabi sport turlari bilan shug'ullanish uchun barcha imkoniyatlar mavjud.

Ishtixonlik sportchilar nafaqat respublika, balki Osiyo va jahon chempionatlarida yuqori natijalarni qo'lga kiritib kelyapti, - dedi viloyat hokimi E.Turdimov. - Masalan, mamlakatimiz bokschi xotin-qizlaridan birinchi jahon chempioni, Parij-2024 olimpiadasi ishtirokchisi Nigina O'ktamova ham shu yurt farzandi. Yana o'nlab ishtixonlik sportchilar terma jamoa tarkibida xalqaro musobaqalarda mamlakatimiz sharafini munosib himoya qilmoqda. Ushbu sport inshooti ana shunday chempion sportchilar tufayli Ishtixon tumani bunyod etildi va bu yerdan yana ko'plab mahoratli sportchilar yetishib chiqishiga ishonamiz.

Yangi binoning ramziy lentasini ham ishtixonlik chempionlar qirqdi.

Tuman mudofaa ishlari bo'limi shu paytgacha eski binoda faoliyat ko'rsatardi. Endilikda bo'lim uchun yangi bino bunyod etilib, xodimlar va chaqiriluvchilar uchun zarur sharoit yaratildi.

Bino yonida poliklinika ham tashkil etilmoqda va bu harbiy xizmatga chaqirilayotgan yoshlarni tibbiy ko'riqdan o'tkazish uchun qulay imkoniyat bo'ladi.

Shundan so'ng xitoylik tadbirkorlar bilan hamkorlikda tashkil etilgan "Ishtixan yimin import export group" korxonasi qishloq xo'jalik

Sport majmuasidan ishlab chiqarish korxonalarigacha



mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va eksport qilishga mo'ljallangan yangi loyihasi ishga tushirildi.

O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi aloqalarning mustahkamlanishi natijasida ishga tushirilgan korxonaga uchun 5 million AQSH dollari sarflandi, - deydi xitoylik tadbirkor Jao Yue. - 50 kishi ish bilan ta'minlandi. Bu yerda yiliga 2 ming tonna qishloq xo'jalik mahsulotlari qayta ishlanadi.

Yana aynan shu yo'nalishdagi "Heng feng foods" korxonasi ham ishga tushirildi. Korxonaga

da 55 kishi ish bilan band.

Foydalanishga topshirilgan tuman sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limi, tuman tibbiyot birlashmasi nogironligi bo'lgan shaxslarni tibbiy reabilitatsiya qilish bo'limining yangi binolarida ham xodimlar va ularga murojaat qiluvchilar uchun barcha imkoniyat va qulayliklar yaratilgan. Binolar zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan.

T. SIDDIQOV,
B. MUSTANOV (surat).

TAYINLOV

Shavkat Qodirqulovich Boboqulov -
Bosh prokuratura huzuridagi
Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi
kurashish departamentining Davlat
moliyaviy nazorat inspeksiya
viloyat boshqarmasi boshlig'i
lavozimiga tayinlandi.



Bir jumlada



Kattaqo'rg'on shahar hokimligining "Kattaqo'rg'on tongi" gazetasi xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi davlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondining 60 million so'mlik grantini yutdi.

Bulung'ur tumanida Cho'yantepa va Qo'ng'iro't mahallalari yoshlari uchun zamonaviy universal sport maydonchasi qurilib foydalanishga topshirildi.

Kattaqo'rg'on tumanidagi Qizilqosh qishlog'ining 4 kilometrlik ichki yo'llariga shag'al to'kildi.

Narpay tumani Mustaqillik mahallasining 2,3 kilometr ichki yo'llariga asfalt yotqizildi.

Paxtachi tumani Taraqqiyot mahallasidagi 18-maktab hududida Streyet-Workout maydonchasi qurildi.

Qo'shramot tumanining Jo'sh mahallasi aholisi SamDTU-ni malakali shifokorlari tomonidan tekshiruvdan o'tkazilib, 12 nafar bemorga Samarqand shahridagi tibbiyot muassasalariga yo'llanmalar berildi.

Parij shahrida bo'lib o'tgan XVII yozgi Paralimpiya o'yinlari ishtirokchisi, urgutlik Uljon Amriyeva Prezident farmoniga ko'ra "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi.

Uljon Amriyeva: ISHONCHNI OQLAYMAN



Uljon Amriyeva 1999-yilda Urgut tumanining Etak beshkapa mahallasida tug'ilgan. 2020-yilda mamlakat paralimpiya milliy terma jamoasiga qabul qilindi. Ayni paytda u viloyat yakka kurash turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabi paradyudo bo'limi sportchisi.

- Allohning irodasi ekan, ko'zimdagi nuqson sabab 10 yil Samarqand shahridagi ko'zi ojiz bolalar uchun ixtisoslashgan 59-maktab internatida o'qidim, - deydi Uljon Amriyeva. - Maktabda o'qish, yaqinlardan uzoqda yashash qiyin bo'lgan. Biroq ustozlarim va tarbiyachilarning e'tibori, qo'llab-quvvatlashi sababli shu maktabni a'lo baholar bilan bitirdim. 2013-2014-yillarda maktabimizda para sport turlari rivojlandi va katta yoshdagi o'quvchilarga qiziqib, 2015-yilda yengil atletikaning yugurish turi bilan shug'ullanishni boshladim.

2016-2019-yillarda shahardagi pedagogika kollejida o'qidim va bu davrda sport bilan shug'ullanishga imkon bo'lmadi. 2020-yilda

Samarqand davlat universitetining geografija fakultetiga o'qishga kirganimdan so'ng, Tokioda bo'lib o'tgan Paralimpiya o'yinlarida para sportchilarning erishayotgan yutuqlarni ko'rib, para dzyudoga qiziqishim oshdi va shogirdlari chempion bo'lgan Dilnoza Bahromova qo'li ostida shug'ullanishni boshladim. 2023-yil may oyida yengil atletikaning yugurish turi bilan shug'ullanishni boshladim.

Xususan, Ozarbayjonning Boku shahrida o'tkazilgan paradyudo bo'yicha gran-pri turnirida,

Londondagi jahon o'yinlari musobaqasida, Xitoyda o'tkazilgan Paraosiy o'yinlarida bronza medallarini qo'lga kiritdim. Joriy yilning 17-18-fevral kunlari Germaniyada o'tkazilgan IBSA gran-prisida 57 kilogramm vazn toifasida chempion bo'ldim. Qisqa fursatda nufuzli musobaqalarda erishgan bu yutuqlarim besamar ketmadi va Parijdagi Paralimpiya o'yinlariga yo'llanma oldim.

Parijdagi Paralimpiya o'yinlarida biroz omad yoki tajriba yetishmadi, imkoniyatni boy berdim. Aslida, bunday nufuzli musoba-

qada ishtirok etishning o'zi men uchun katta tajriba bo'ldi.

Musobaqadan so'ng Yurt-boshimiz Paralimpiya o'yinlarida faol qatnashgan sportchi va murabbiylardan bir guruhini mukofotladilar. Ular orasida men ham borligimni eshitib, juda xursand bo'ldim.


Harakatlarimni e'tiborga olib, "Shuhrat" medali bilan taqdirlanganlari va menga ishonch bildirganlari uchun Prezidentimizdan minnatdorman. Albatta, bu ishonchga munosib bo'lib, keyingi musobaqalarda oltin medalni qo'lga kiritish uchun harakat qilaman.

- Olti nafar farzandimiz bor, Uljonoy to'rtinchisi, - deydi Uljonning onasi Gullola Narimova. - Qizim yoshligidan biroz erkaroq, sho'x, o'g'il bolalarga o'xshardi. Nimanidir maqsad qilsa, unga erishmaguncha harakatdan to'xtamas edi. Shuning uchunmi, ko'proq sportga qiziqdi, terma jamoaga qabul qilinib, nufuzli musobaqalar g'olibi va sovrindori bo'ldi. Yaqinda o'tkazilgan Paralimpiya o'yinlarida o'rin ololmagan bo'lsa ham munosib kurashdi. Prezidentimiz qizimni qo'llab-quvvatlab, "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi. Bunday e'tibor va yoshlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlar uchun Yurtboshimizga rahmat!

Fazliddin RO'ZIBOYEV,
"Zarafshon" muxbiri.

GAZETA O'QIYAPSIZMI?

OILANGIZ — CHI?



Zamon zayli ekan,
deb faqat
telefonga qarab
qolmayapsizmi?

"Zarafshon" va
"Самаркандский вестник"
gazetalariga 2025-yil uchun
obuna boshlandi.
Obunani tahririyatdan
rasmiylashtirsangiz, mablag'ni
tejsaysiz! Ishonaversing!

Murojaat uchun telefonlar:
(66)233-91-51, 233-91-55

↓ **Bugunning gapi****Kambag'allikdan tadbirkorlik sari****Kambag'allikni qisqartirish shu shior bilan olib borilmoqda**

Viloyatda mazkur yo'nalishda respublikada eng quyi darajadagi, ya'ni 5-toifaga kiritilgan Qo'shrabot tumani tanlab olinib, amaliy ishlar qilinmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, 45 ta viloyat tashkiloti va bank rahbarlari hamda 45 nafar tashabbuskor tadbirkor hududdagi 1 tadan mahalla va 3 tadan kambag'al oila birkirilgan.

Ular tomonidan kambag'al oilalarning o'ziga ishonchini oshirish, dunyoqarashini o'zgartirish, kasbga o'rgatish, xorijiy tilni o'zlashtirish, tadbirkorlik muhitini oila va mahallada yaratish,

lar instituti bilan hamkorlikda ingliz tiliga, 30 nafarini Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali bilan hamkorlikda kompyuter savodxonligi kurslariga o'qitish choralarini ko'rmolmoqda. Kambag'al oilalarning aksariyati ko'p farzandli ekanligi, boquvchisini yo'qotganligi yoki bola parvarishi bilan bandligi hisobga olinib, ularga xonadonining o'zida qo'shimcha daromad olishi uchun imkoniyat yaratib berilyapti.

Masalan, "Navobod nasli parranda" mas'uliyati cheklangan jamiyati Yuqori Jo'sh mahallasidagi barcha xonadonlarga 100 tadan broyler jo'ja tarqatib, ozuqa bilan ham ta'minlaydi va tayyor mahsulotni ularidan manfaatlari narxlarida sotib olishni yo'lga qo'yolmoqda.

Qo'rg'on mahallasiga birkirilgan "Qo'shrabot Loman parranda" korxonasi esa 50 ta oilaga tuxum yo'nalishida parranda berib, tuxumni o'zi sotib oladi.

Qayd qilinishicha, yirik tadbirkorlar hudud infratuzilmalini yaxshilashga ham o'z hissasini qo'shyapti. Xususan, "Samarqand Diyora Iyuk" mas'uliyati cheklangan jamiyati Yangi qishloq mahallasida 3 ta artizian quduq qazib, suv chiqarmoqda. Shuningdek, mahalla hududidagi ta'mirlanib (eni 5 metr, uzunligi 35 metr) ko'prikn ta'mirlash uchun zarur miqdordagi quzilish materiallari olib bermoqda.

Kambag'al oilalar daromadi barqaror emasligi - aksariyat qismi kunlik va mavsumiy ishlarda ishlashi, ayniqsa, kuz-qish mavsumida ishsiz qolishi kuzatilgani uchun ishsizlarning doimiy bandligini ta'minlashga e'tibor qarab, ichki migratsiya imkoniyatlaridan foydalanilyapti. Jumladan, Urgut tumanidagi "SAM FERRE" maishiy texnika ishlab chiqarish zavodi rahbari Akmal Ahmedov Xonnazar mahallasida 50 ga yaqin fuqarolar bilan suhbatlashib, shu kunning o'zida 11 nafarini korxonada ishlashga olib ketgan.

Ular yotoqxona, ovqat va har 15 kunda ish haqi (o'rtacha maosh 3-8 million so'm) bilan ta'minlanadi. Samarqand shahridagi "SAM STROY INVEST" mas'uliyati cheklangan jamiyati Qo'shtamg'ali mahallasidagi 165 nafar ishsiz fuqaroni o'z korxonasida ish bilan bandligini ta'minlayapti.

Viloyat markazidagi "SXF BIG STROY BUILDING" mas'uliyati cheklangan jamiyati Chinoq mahallasida qishloq vrachlik punkti, dorixona, poyabzal ustaxonasi, sarta'shonxona va savdo do'kon qurib, yangi ish o'rinlari yaratmoqda.

Bundan tashqari, ichki migratsiya asosida mahalladagi 58 nafar ishsiz fuqaroni o'z korxonasiga ishga olib,

6-8 million so'm ish haqi bilan

ta'minlagan.

Davlat rahbari ko'rsatmasi asosida mahallabay ishlash bilan birga har bir kambag'al oilaga individual yondashilmoqda.

Misol uchun, Samarqand shahridagi "SAM DIAMOND INVEST 007" mas'uliyati cheklangan jamiyati oila boshlig'ini yig'och o'ymakorligi bo'yicha doimiy ishga olib, shu kasbni o'rgatmoqda, oshxonasini ta'mirlab, jiozlamolmoqda.

Yana bir oila boshi Qozog'istoniga ishlash uchun ketgan bo'lsa-da, daromadi kamligi uchun u bilan telefon orqali bog'lanib, o'z korxonasiga doimiy ishga taklif qilgan. Bola parvarishi bilan band turmush o'rtog'ining shaxmat bo'yicha salohiyati borligi aniqlanib, mahalladagi 2-maktabning bo'sh turgan binosidan to'garak ochib bermoqda. Darvoqe, to'garak mashg'ulotlari uchun har oy tadbirkor tomonidan ish haqi to'lab beriladi.

Boytup mahallasida o'simliklar karantini boshqarmasi 3 ta kambag'al oilaning uy-joyini joriy ta'mirlashga ko'maklashmoqda.

Albatta, tumanda foydalanilmagan xazira va imkoniyatlar ham yetarli. Jumladan, sanoat, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi sohalarida qiymati 257,2 milliard so'mlik 5 ta loyiha amalga oshirish hisobiga 515 ta yangi ish o'rnini yaratish mumkin.

Xususan, Pangat mahallasi hududida tog' yonbag'irlarida, yil yakuniga qadar 26 ta dam olish maskani, 17 ta oilaviy mehmon uyi, 3 ta umumiy ovqatlanish shoxobchasi tashkil etilib, sayyohlar oqimi bugungi 50-60 mingdan 120 ming nafarga yetkaziladi. 177 ta yangi ish o'rnini yaratiladi.

O'rtasoy, Sarigul, Chimmos, Qoratosh va Do'stlik mahallalarida qiymati 10,4 milliard so'mlik 260 gektar maydonda bog'lar tashkil etiladi va 260 nafar ishsizning bandligi ta'minlanadi.

Umuman, Qo'shrabot tumani kam bag'allikdan xoli hududga aylantirish bo'yicha "Kambag'allikdan tadbirkorlik sari" shiori ostidagi ishlar bosqichma-bosqich davom ettiriladi.

Mas'ul tashkilotlar mahalla yetiligi bilan birgalikda barcha oilalarni xatlovdan o'tkazadi va 5 ta toifaga ajratadi: Har bir oila bilan suhbat o'tkazilib, kambag'allik sabablari o'rganiladi. Keyingi bosqichda "Oila dasturi" ishlab chiqilib, kambag'al oilalarga iqtisodiy, ijtimoiy, tibbiy va huquqiy xizmat, yordamlar ko'rsatilib, bandligini ta'minlashga alohida e'tibor qaraladi.

Bunda kambag'al oila bo'yicha aniqlangan tizimli muammolarni hal etish uchun tegishli boshqarma va tashkilotlarga yo'naltirilib, ijrosi nazoratga olinadi. Masalan, noqonuniy qurilish bo'yicha kadastrlar palatasiga, elektr energiya ta'minoti bo'yicha "Hududiy elektr tarmoqlari" AJga, davolanish bilan bog'liq masalalar bo'yicha sog'liqni saqlash boshqarmasiga yo'naltiriladi.

Asosiy, kambag'allikdan chiqarish bo'yicha chora-tadbirlar ijrosi va o'ladagi o'zgarishlar doimiy monitoring qilib boriladi.

Y.MARQAYEV
tayyorladi.

↓ **Bizning suhbat**

Ayni kunlarda tuman va shahar mudofaa ishlari bo'lmlari-da 2025-yilgi muddatli harbiy xizmatga chaqiriluvchilarni tanlovdan o'tkazish ishlari boshlangan. 2025-yilning 10-fevraliga qadar davom etadigan saralash tadbirlari askarlik orzusidagi yigitlar hayotidagi eng muhim sinov hisoblanadi. Viloyat mudofaa ishlari boshqarmasi boshlig'i Burxon Quvatov bilan chaqiruv jarayoni, xususan, chaqiriluvchilarni saralash tartiblari haqida suhbatlashdik.

Muddatli harbiy xizmat: Kimlar askar bo'ladi, sinovlar qanday o'tyapti?

— Suhbatimizni muddatli harbiy xizmatga chaqiriluvchilar ro'yxatining shakllantirishidan boshlasak. Bu qanday amalga oshiriladi?

— Yaqingacha bu ro'yxatni shakllantirish faqat mudofaa ishlari bo'lmlarining zimmasida edi. Chaqiruv mavsumi oldidan mudofaa ishlari bo'lmlari xodimlari barcha tuman va shahar mahallalariga birkirililib, hujjat to'plash tadbiri boshlanadi. Ayni jarayon katta kuch va vaqt talab qilgan.

Joriy yildan esa chaqiriluvchilar harbiy xizmatga yoshlar yetakchilari tomonidan tavsiya qilinmoqda. Bu haqda 2023-yil 4-dekabrda tegishli vazirliklar o'rtasida qo'shma qaror qabul qilingan. Hujjatga muvofiq, yoshlar yetakchilari hududdagi yoshlar kontingentiga qarab, 5 nafargacha chaqiruv yoshidagi yigitlarni muddatli harbiy xizmatga jalb qilishi belgilangan. Ya'ni, endi ro'yxat shaffof tarzda, mahalla faollarining ishtirokida shakllantiriladi.

— Muddatli harbiy xizmatga kimlar chaqiriladi? Uning uchun to'lov bormi?

— O'zbekiston Respublikasining "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi qonuni 4-moddasi talablariga asosan, tinchlik davrida oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlarida muddatli harbiy xizmatga, shuningdek, safarbarlik chaqiruv rezerva xizmatiga 18 yoshdan 27 yoshgacha bo'lgan, salomatligiga ko'ra, Qurolli Kuchlar safida harbiy xizmatni o'tashga yaroqli barcha erkak fuqarolar chaqiriladi.

Umumta'lim maktablarida, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda, oliy ta'lim muassasalarida kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan chaqiriluvchilarning chaqirilish muddati ular o'qishni tamomlaguniga qadar kechiktiriladi. Muddatli harbiy xizmatga o'rtadan, o'rtadan maxsus va oliy ta'lim uchun ega bo'lgan fuqarolar tavsiya qilinadi.

Qonunning 22-moddasiga ko'ra, tinchlik davrida muddatli harbiy xizmat hamda safarbarlik chaqiruv rezerva xizmatidan salomatligiga ko'ra harbiy xizmatga yaroqsiz deb topilgan, yaqin qarindoshlaridan biri (aka-ukasi, opa-singlisi) harbiy xizmatni o'tash vaqtida halok bo'lgan yoki vafot etgan, ro'y-xatdan o'tgan diniy tashkilotlardan birida diniy rutba egasi bo'lgan chaqiriluvchilar ozod etiladi. Jinoyat javobgarlikka tortilgan, shuningdek, sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan fuqarolar ham harbiy xizmatga chaqirilmaydi.

Muddatli harbiy xizmatga chaqirilish jarayoni, xususan, chaqiruv muddatini kechiktirishda ham hech qanday to'lov amalga oshirilmaydi. Safarbarlik chaqiruv rezervi to'lov badali bundan mustasno. Boshqa holatlarda pul talab qilish yoki sababsiz harbiy xizmatdan qoldirishda vositachilikni taklif qilish jinoyat javobgarlikka olib keladi.

— Muddatli harbiy xizmatga borish uchun chaqiriluvchilar qanday sinovlardan o'tishi lozim va eng muhimi, bu bosqich adolatli bo'lishini kim kafolatlaydi?

— Chaqiriluvchilar umumijsoniy tayyorgarligini aniqlash sinovlari hamda yakka tartibdagi suhbatdan o'tishlari kerak bo'ladi. O'z navbatida umumijsoniy tayyorgarlik normalarini tibbiy ko'rik natijalariga ko'ra harbiy xizmatga yaroqli bo'lgan chaqiriluvchilar topshirishi mumkin.

Belgilangan normalar murakkab emas, turnikda tortilish, 100 metr va 3 ming metrga yugurish. Albatta, davogarlarga har bir normativ bo'yicha baho qo'yib boriladi. Misol uchun, turnikda 12 marotaba va undan ko'p tortilganlarga 5 (a'lo), 10-11 marotabaga 4 (yaxshi), 8-9 marotabaga 3 (qoniqarli) va undan pastiga 2 (qoniqarsiz) baho beriladi. Umumijsoniy tayyorgarlik darajasini baholashda bitta 2 baho



olgan chaqiriluvchi normalarini topshira olmagani hisoblanadi.

Yakka tartibdagi suhbatda chaqiriluvchilarning mahalla va jamiyat hayotidagi ishtiroki, madaniyati, qiziqishlari, O'zbekiston tarixi, buyuk sarkardalarimiz va ajdodlarimiz hayoti va faoliyatiga oid bilimlari baholanadi.

Yakunda umumijsoniy tayyorgarlik va yakka tartibdagi suhbat bo'yicha o'tkazilgan sinov natijalari umumlashtirilib, chaqiriluvchiga tavsiya beriladi yoki rad etiladi.

Aytish joizki, nizomga ko'ra, chaqiriluvchilarning umumijsoniy tayyorgarlik darajasini baholash, ular bilan yakka tartibdagi suhbat o'tkazish tanlov kengashi tomonidan amalga oshiriladi. Tanlov kengashiga tuman yoki shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi mudirining o'rinbosari, Yoshlar ishlari agentligining hududiy boshqarmasi va yoshlar ittifoqining hududiy kengashi vakillari, ichki ishlar organlari boshliqlarining yoshlar masalalari bo'yicha o'rinbosarlari, umumiy o'rtadan ta'lim muassasalarining chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilari hamda chaqiriluvchilarning ota-onalari a'zo qilinadi. Ya'ni, bu bosqichda mudofaa ishlari bo'limi yoki harbiy qismlar vakillari ishtirok etmaydi.

— Muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarga oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun tavsiyanomalar berish tartibining o'zgariganligi chaqiruv tadbirlariga qanday ta'sir qilyapti?

— Albatta, imtiyozlarning qisqartirilishi muddatli harbiy xizmatga hujjat topshiruvchilar soni kamayishiga olib keldi. Lekin bu umumiy tanlov imkoniyatini kamaytirgani yo'q. Harbiy bo'lishni, eng kamida el-yurt oldidagi yig'itlik burchini bajarishni maqsad qilgan yoshlarimiz ko'p. Ular milliy armiyamiz safini to'ldirib, yurtimizning harbiy salohiyatini oshirishga munosib hissa qo'shishmoqda.

Tavsiyanoma masalasiga kelsak, bu amaliyot ham bekor bo'lgani yo'q. Faqat endi u barcha harbiy xizmatchilarga berilmaydi. Muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarga O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun tavsiyanomalar berish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq, tavsiyanomani xizmat davomida jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik bo'yicha yuksak natijalarga erishgan, zaruriy bilim saviyasiga ega, namunali harbiy intizomini namoyon etgan harbiy xizmatchilar o'ladi.

Tavsiyanomaga ega bo'lgan fuqarolar respublikaning oliy harbiy ta'lim muassasalaridagi tegishli ta'lim yo'nalishlariga o'qishga kirishda test sinovlari natijalariga ko'ra, o'zlari to'plagan balni 50 foiz miqdorida qo'shimcha ball shaklidagi imtiyozga ega bo'ladi. Respublikaning boshqa oliy ta'lim muassasalarida bakalavriyatiga o'qishga kirish uchun esa ular oliy ta'lim muassasalariga qabul parametrlaridan tashqari ajratiladigan alohida qabul ko'rsatkichlari doirasidagi tanlovda ishtirok etadi.

Asqar BAROTOV
suhbatlashdi.

ichki migratsiyani rivojlantirish orqali ishsiz aholi bandligini ta'minlashga alohida e'tibor qaralmoqda.

Misol uchun, Qo'shrabot tumani Yangiobod mahallasida Samarqand shahridagi "SB GEOLOG" mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari O'tkir Bagirov 42-maktabning fizika va ingliz tili o'qituvchilari bilan bir yillik shartnoma imzolab, 40 nafar kambag'al oila farzandlarini qo'shimcha o'qitishni yo'lga qo'ygan. E'tiborlisi, har ikki oyda malakali mutaxassislar jalb etilib, qo'shimcha ta'lim olayotgan bolalar sinovdan o'tkazib boriladi.

Kelgusida mahallada o'quv markazi tashkil etiladi, markaz elektron doska va boshqa zamonaviy ta'lim uskunalari bilan jihozlanadi. Unda birinchi navbatda kambag'al oilalarning 45 nafar farzandlari kasb-hunarga o'qitiladi. Asosiy, markaz faoliyatini boshlashi bilan mahallada yana 10 ta yangi ish o'rnini yaratiladi.

Samarqand shahridagi boshqa bir yirik tadbirkor "AGROMIR BUILDING" qo'shma korxonasi Katta oqmachit mahallasidagi 100 nafar ishsiz fuqaroni avtokran haydashga o'qitib, ularni doimiy ishga jalb qilishni rejalashtirgan.

Davlat aktivlari boshqarmasi Qo'shtamg'ali mahallasidagi kambag'al oilalarning 30 nafar farzandlarini Samarqand davlat chet til-

Aholiga ko'mir yetkazib berilmoqda

Joriy yil kuz-qish mavsumida viloyatimiz aholisini ko'mir bilan ta'minlash maqsadida Jomboy, Bulung'ur, Samarqand, Past Darg'om, Narpay, Toyloq, Paxtachi, Kattaqo'rg'on shahrida 8 ta ko'mir ombori, Qo'shrabot va Urgut tumanlarida esa 2 tadan savdo shoxobchalari tashkil etilgan. Hududida ko'mir ombori bo'lmagan Payariq, Oqdaryo, Nurobod va Ishtixon tumanlari aholisi Samarqand shahridagi hamda belgilangan qo'shni tumanlardagi hududiy shoxobchalardan xarid qilishlari mumkin.

"Ko'mir ta'minot" MCHJ viloyat filiali ma'lumotlariga ko'ra, joriy yilning iyul-avgust oylarida ijtimoiy soha obyektlari zarur miqdorda ko'mir bilan ta'minlandi. Jumladan, viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi tizimidagi ta'lim muassasalariga 52577 tonna, sog'liqni saqlash sohasi muassasalariga 6310 tonna, madaniyat uylariga 930 tonna

ko'mir mahsulotlari yetkazib berildi.

Ayni vaqtda aholi uchun ham ko'mir tarqatish ishlari boshlangan. Buning uchun "O'zbekko'mir" AJ rejasiga ko'ra, Angren ko'mir konidan temiryo'l orqali vagonlarda ko'mir olib kelinib, hududiy omborlarga joylashtirilmoqda. Joriy mavsumda aholiga 149500 tonna ko'mir yetkazib berish rejalashtirilgan.



bo'lib, hozirgacha mahallalar orqali 4044 tonna ko'mir sotildi.

Ikki yildirki, aholi uchun sotilayotgan ko'mirning narxi o'zgarгани yo'q, - deydi "Samarqand" markaziy ko'mir ombori mudiri Bobosher Qarshiyev. - Bir kilogramm ko'mirning narxi 309,8 so'mni tashkil etadi. Tuman hokimliklariga har bir mahalla tomonidan ehtiyojmand oilalar, ulardagi a'zolar sonining ro'yxatlarini berilgan bo'lib, shu asosda belgilangan miqdorda ko'mir ajratiladi.

Ayni vaqtda filialga qarashli hududiy omborlarda aholiga ko'mir yetkazib berish va manzilli tarqatish yuzasidan zarur choralar ko'rilgan. Buning uchun 20 ga yaqin maxsus texnika va yuk mashinalari ishga jalb qilingan. Mas'ullarning ta'kidlashicha, joriy yilda aholiga ko'mir yetkazib berishda muammolar bo'lmaydi.

Dilmurod TO'XTAYEV.

Matbuot anjumanida aytildi

Viloyat aholisiga 414 ta jamoat transporti xizmat ko'rsatmoqda. Shundan Samarqand shahrida ro'yxatdan o'tgan 351 ta avtobusdan 221 tasi shahar avtobus yo'nalishlarida harakatlanadi. Biroq bu ko'rsatkich Samarqand shahri uchun talab qilinadigan avtobuslarning 44,2 foizini tashkil qiladi, xolos. Tumani ham avtobuslar yetishmaydi, Nurobod, Oqdaryo va Toyloq tumanlarida ro'yxatdan o'tgan birorta ham avtobus mavjud emas.

Avtobuslar yetishmaydi,
avtostansiya va bekatlarda
muammolar bor

Bu raqamlar viloyat transport boshqar-masi boshlig'i Ravshan Tojiyev ishtirokida joriy yilning o'tgan davrida amalga oshirilgan ishlar, tizimdagi muammo va kamchiliklarga bag'ishlangan matbuot anjumanida aytildi.

- Viloyatda 17 ta avtostansiya hamda 1422 ta avtobus oraliq bekatlari mavjud, - deydi R.Tojiyev. - Avtostansiyalar tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lsa, 1033 ta bekat avtomobil yo'llari boshqarmasi balansida, 389 tasi tadbirkorlik subyektlariga qarashli. Mazkur bekat va avtostansiyalarning holati o'rganilgan-da bir qator kamchiliklar aniqlandi. Jumladan, me'yoriy-texnik standartlarga asosan, avtobus oraliq bekatlari yo'lovchilarni tushirish-chiqarish maydonchasi, avtobuslar kirish va to'xtash qismi, piyodalar kirish va chiqish qismi, yo'l belgisi, ayvon, o'rindiq, nogironlar uchun chiqish-tushish yo'lakchasi (pandus), chiqindi qutisi va axborot ko'rsatkichlari kabi elementlar bilan jihatlanishi belgilangan bo'lsa-da, aksariyat bekatlarda yuqoridagi talablarning deyarli birortasi bajarilmagan.

Ish-tixon tumanidagi "Avtoservis Ishtixon" MChJga qarashli "Ishtixon", "Suxrob avto trans" MChJga qarashli "Mitan" avtostansiya-lari tomonidan bo' borada hech qanday ish qilinmagan. Paxtachi tumanidagi "Paxtachi tashkiliy avto" MChJga qarashli "Ziyoddin" avtostansiya-da esa jamoat transportiga chiqish personalari me'yoriy standartlarga javob bermaydi hamda avtobuslar kirib-chiqadigan yo'laklar ta'mirlanmagan. Narpay tumanidagi "Samarqand ideal servis" MChJga qarashli "Mirbozor" avtostansiya shu-dudida esa chiqindilardan tozalanmagan, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun sharoit yaratilmagan, hududga kirish va chiqishda xavfsizlik cho-ralari ko'rilmagan.

Payariq tumanidagi "Ottava KAN" MChJga qarashli "Payariq" avtostansiya-si Prezidentimizning 2022-yil 12-iyuldagi "2022-2026-yillar davomida amalga oshirilishi mo'ljallangan "Xavfsiz va ravon yo'l" umum-milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qaro-riga asosan, rekonstruksiya qilish rejalashtiril-gan bo'lsa-da, bu ish amalga oshirilmagan qolgan. Ayni paytda tizimdagi muammo va kamchiliklarni bartaraf qilish borasida mas'ul tashkilot rahbarlariga topshiriqlar berilgan va amaliy ishlar olib borilmoqda.

YANGI YO'NALISHLAR OCHILGAN

Matbuot anjumanida tumanlarda aholining jamoat transportiga bo'lgan ehtiyojini qondir-



F.RO'ZIBOYEV.

rish maqsadida bir qancha yangi yo'nalishlar tashkil etilgan ma'lum qilindi. Jumladan, 346-raqamli "Mirbozor ABB - Do'stlik mahal-lasi - Mirbozor ABB" shahar atrofi avtobus yo'nalishi, 323-sonli "Juma ABB-Charxin qo'rg'oni-Gulobod eko agrologistika bozori", 454-raqamli "Mani qishlog'i - Xo'ja Ismoil mahallasi - Chelak shahri - Payariq ABB", 455-raqamli "G'allakor mahallasi - Payariq ABB" hamda 464-sonli "Esaboy mahallasi (43-maktab)-Juma ABB" yo'nalishi taksi yo'nalishlari tashkil etilib, yo'lovchilarga xiz-mat ko'rsatmoqda.

SHAHAR AVTOBUSLARI
BRUTTO-SHARTNOMA BO'YICHA
ISHLASH TIZIMIGA O'TMOQDA

Prezidentimizning 2023-yil 16-fevraldagi «Jamoat transporti tizimini isloh qilish cho-ra-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga ko'ra, Samarqand shahrida muntazam shahar avtobus yo'nalishida cheklangan tariflar bo'yicha yo'lovchilar tashishni brutto-shart-noma asosida tashkil etish va moliyalash-tirish tizimining bosqichma-bosqich ishga tushirishi rejalashtirilgan. Qaror ijrosini ta'minlash maqsadida Samarqand shahar avtobus yo'nalishlari tender tanlovlarga chiqarilib, yetti yo'nalishda "Maroqand trans 777" MChJ g'olib deb topildi va brut-to-shartnomasi tuzilgan.

- Brutto-shartnoma tizimi tashuvchi korxonaga va nazorat qiluvchi organ o'rtasida tuziladi, - deydi Ravshan Tojiyev. - Bunda tashuvchiga korxonaga jamoat transportiga qo'yilgan talablarni, ya'ni yo'nalish chizma-siga to'liq rioya qilish, yo'lovchilarga sifatli xizmat ko'rsatish, oraliq intervalga amal qilish, ish boshlanishi va tugashi tartibini bajarish vazifasi yuklatiladi. Shuningdek, shahar avtobus yo'nalishlarini monitoring va nazorat qilish uchun tashkil etilgan "Sa-marqand yo'lovchi tashishni monitoring va nazorat qilish" davlat muassasasi "UzBus-Monitoring" (IVMS) axborot tizimi kuza-tuv ishlari olib bormoqda. Kuzatilayotgan tirdandliklarni hisobga olgan holda jamoat transportiga ustunlik berish maqsadida Samarqand shahri Abulqasim Anvariyev nomi-da Bo'stonsaroy ko'chalarida hamda Univer-sitet xiyobonida avtobuslar uchun alohida tasma tashkil etilgan. Yaqinda shaharning Gagarin ko'chasida ham avtobuslar uchun alohida tasma tashkil qilish rejalashtirilgan.

Muolajani mehrdan boshlaydigan shifokor

"Qari bilganni pari bilmaydi" deb bekorga aytish-magan. Ayniqsa, keksaygan chog'ida ham foydali ish bilan shug'ullanayotgan nuroniylar davralarimiz fayzi. O'zining ibratli hayoti, tajriba-si bilan yoshlarga murabbiylik qilib kelayotgan ustoz, qo'li em shifokor, payariqlik O'roqxon Narzullayev ana shunday nuroniylardan.

Umri 47 yilini sog'liqni saqlash sohasiga bag'ishlagan otaxon yaqinda "Mehnat faxriysi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

O'roqxon Narzullayev tibbiyot fanlari nomzodi, sohaga oid o'ndan ortiq qo'llanma va kitoblar yozgan. 40 yil tuman-da bosh vrach vazifasida ishlab, el salomatligini tiklashdek mas'uliyatli ishda siddiqdildan mehnat qilgan tibbiyot sohasi fidoysisi.

Talabalik yillarida otam bilan bemor singlimizni ko'rish uchun shifoxonaga bordik. Singlimdan xabar olgach, otam «Yur, senga zo'r shifokorni ko'rsataman», deb bosh shifokor huzuriga yetakladi. Bosh vrach kotibasi «Sizlarga qanday yordam kerak?» deb ochiq yuz bilan kutib oldi. Kimsan bosh vrachning qabulida shunday muomala bo'lib tursa rosti, hozir aksariyat tashkilotlarda bunday muomala ko'pchilikka an-qonining urug'idek bo'lib qolgan. Kotibaga muddaomizni aytagach, "hozir" deya bosh vrach huzuriga boshladi.

Yuzidan nur yog'ilib turgan O'roqxon Narzullayev suhbat jarayonida bemor masalasidan ortib, menga ham maslahatla-rini bergandi.

- O'g'lingiz bilan tanishganimdan juda xursand bo'ldim, -

G'ayrat-shijoati, faolligi bilan
boshqalarga ibrat bo'layotgan
A'zam A'lomovni yaqinlariyu
do'stlari shunday e'tirof eti-shadi.

Har bir shaxsda iste'dodning turli qirralari yashiringan bo'lishi va u kerakli paytda ro'yobga chiqib, yuksak insoniylik fazilatlarini bilan uyg'unlashganda, bundan jamiyat manfaat ko'rishi A'zam A'lomov timsolida namoyon bo'lmoqda desak, haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Samarqand shahrining Bog'imaydon mahallasida istiqomat qilib kelayotgan qahramonimiz deyarli yarim asr yoshlar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullandi va shundan 36 yili maktab direktori o'rinbo-sari va direktorligi bilan kechdi.

U buvisi, dadasi va amakilariga havas qilib, o'qituvchi bo'lish niyatida Sa-marqand davlat universitetining o'zbek va tojik filologiyasi fakultetida o'qidi. Ish faoliyatini Samarqand tumanining Bog'ibaland qishlog'ida 10-umumta'lim maktabida boshladi.

So'ngra shu maktabda direktorning o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari, 1993-yildan pensiyaga chiqquniga qadar maktab direktori vazifasida ish-ladi. Bu yillar davomida maktab nafaqat o'quv-tarbiya ishlari, balki obodonchilik borasida ham yetakchi ta'lim muassa-salari qatoriga qo'shildi. Bunga o'quv-chilarning respublika fan olimpiadalarida g'olib chiqqanligi, 2012-2013-yillarda ketma-ket ikki marta "Eng obod maktab", "Eng ijodkor va tashabbuskor maktab" tanlovlari-da e'tirof etilgan misol bo'la oladi.

Muallim A'lomov bir yoqasi jarlik, bir yoqasi tepalikdan iborat uch burchak shaklidagi tor maydonda joylashgan eski maktab binosi o'rnida yangi, uch qavatli bino qurilishi uchun huzur-halovatidan kechganligini ham maktab jamoasi va aholi yaxshi biladi. Ancha yugur-yugur-lardan so'ng 1992-yilda maktabning yangi binosini qurish uchun yer ajratildi. Ammo bino qurilishini 15 yil kutishga to'g'ri keldi.



dedi O' Narzullayev otamga. - Zamon ertaga shularniki-da. Ochig'i, bugun bir narsadan xursandman. O'qiyman, izlana-man desang, hamma sharoit bor. Oldingi zamon bilan hozirgi zamoni taqqoslaydigan bo'lsangiz, osmon bilan yercha farqi ko'rasiz. Shuni quvonch bilan aytamanki, bugungi yoshlar-nig g'ayrat-shijoati tufayli barcha sohada ildamlik, rivojlanish bo'laveradi.

Farzandlarining baxtu iqbolini ko'rib, keksalik gashtini surayotgan O'roqxon Narzullayev 83 yoshga kirgan bo'lsa-da, bir yigitchalik shaxdi bor. Otaxon bilan suhbatlashangiz, faoliyati haqida so'rasangiz, bemorni davolashni mehrdan, xushmuomalalikdan boshlash kerakligini aytadi. Ayni paytda otaxon o'zining ibratli hayoti, boy tajribasi bilan ko'pchilikka o'rnak bo'lib, yoshlarning jamiyatda o'z o'rni topishida yor-dam berib kelmoqda.

Husniddin XOLDOROV.

Mohir pedagog, jonkuyar
rahbar, qo'li gul bog'bon

Shuncha yil davomida bu joyga ko'z olaytirganlar bor hunarini ishga solib, uni tortib olish uchun kurashdi. Amaldorlarni o'zining dushmaniga aylantirgan va bu unga ancha qimmatga tushgan bo'lsa-da, A'zam A'lomov maktab qurilishi uchun ajratilgan yer uchastkasini ham-da o'zining nomini, el oldidagi obro'yini saqlab qoldi.

2004-yilda mutasaddilar muallimdan maktab qurilishiga ajratilgan yer may-donini jamoa xo'jaligi hisobiga qay-tarilishini so'rab ariza yozib bershini talab qilishdi. Go'yoki maktabning yangi binosini eski joyda qurish mumkin ekan. Bu xizmat uchun unga ikkita yer uchast-kasi berilishini ham aytishdi. Albatta, A'zam muallim bu taklifga rozi bo'lmasdi.

- Keyinchalik meni jazolash maqsadi-da komissiya tuzildi va hovli-joyi oilasiga torlik qilayotgan o'qituvchilar qatori menga ham ajratilgan yer uchastkasi "ayni paytda yashash sharoiti yaxshi, yangi joyga ehtiyoji yo'q" degan asos bilan qaytarib olindi, - deb o'sha "o'jarligi" oqibatini eslaydi ustoz.

Maktab va uning o'quvchilari uchun qilgan muhim ishlaridan yana birini esla-masak bo'lmaydi. Maktabning yangi bi-nosi qurilishi boshlanishi bilan A.A'lomov loyihaga e'tibor qaratdi. Ma'lum bo'lishi-cha, unda faqat sinf va laboratoriya xonalari qurilar, katta maktab uchun sport zali va faollar zali qurish inobatga olinmagan ekan.

Quruvchi va loyihachilarga bu haqda gapirganida ular loyihaga o'zgartirish kiritish faqat Xalq ta'limi vazirligi rus-tasi bilan bo'lishi mumkinligini aytishdi. Muallim izlandi, o'rgand va oxiri vazirlikka borib, masalaning ijobiy hal bo'lishiga erishdi.

A'zam A'lomov pensiyaga chiqqandan keyin ham tinim bilmadi. Ayni paytda u 70-maktab psixologi sifatida ishlash bilan



bir vaqtda Bog'imaydon mahalla raisi-nig keksalari va faxriy ishlari bo'yicha maslahatchisidir. Mahallamizdagi ko'plab ezgu ishlarda muallim boshqalarga ibrat bo'lyapti, nuroniylarga bosh bo'lib yosh-larga to'g'ri yo'l ko'rsatmoqda.

70-maktabda esa o'z ishidan ortib, hududni obodonlashtirish, ko'kalamzor-lashtirishga hissa qo'shib kelmoqda.

A'zam A'lomov katta va ahil oila sar-dori. Turmush o'rtog'i Ofiyat Sultonova bilan 48 yildan buyon bu oilaga bosh-chilik qilib, to'rt farzand, o'n nevara va ikki evarani jamiyatga munosib insonlar etib tarbiyalashmoqda.

Muallim A'zam A'lomov qutlug' 70 yoshni qarshilamoqda. Do'stimizni ulug' yosh va yaqinlashib kelayotgan ustoz va murabbiylar kuni bilan tabriklab, unga mustahkam sog'liq, oilaviy xotirjamlik tilaymiz.

Toshpo'lat RAHMATULLAYEV,
O'zbekiston Jurnalistlar
uyushmasi a'zosi.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tekzor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aminov Mashhurjon Yusufovich notarial idorasida marhum Fattoyev Faxriddin Kurbanovichga (2023-yil 20-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ami-nov Mashhurjon Yusufovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Sug'diyona maskani, 14/12-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Himmatov Baxtiyor Bahodirovich notarial idorasida marhum Shamsiyeva Azizaga (2022-yil 7-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu muno-sabat bilan merosxo'rlarning Himmatov Baxtiyor Bahodirovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 90-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasida marhum Kudratov Murodiloga (2024-yil 20-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda.

Shu muno-sabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aminov Mashhurjon Yusufovich notarial idorasida marhum Sadikov Azzamga (2019-yil 1-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aminov Mashhur-jon Yusufovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Sug'diyona maskani, 14/12-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Shamsiyeva Muyassarga (2012-yil 25-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu muno-sabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Sha-hlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurah-mon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Axunov Siddikga (2005-yil 21-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurah-mon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasida marhum Ruziyev Farxod Abdumurodovichga (2021-yil 5-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Gorshkov Andrey Aleksandrovichga (2022-yil 14-noyabrda vafot etgan) tegishli

mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurah-mon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzulla-yeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Zayniev Amriga (2010-yil 10-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu muno-sabat bilan merosxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko'chasi, 5/1-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Ishankulov Fatakulga (1991-yil 7-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Davirov Abdurashidga (2017-yil 29-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Sai-dova Zarina Xisrovovna notarial idorasida marhum Raximova Mukadimga (2022-yil 28-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisrovovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurah-mon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

BEKOR QILINADI
Past Darg'om tumanidagi "SAMARKAND ECO GREEN PRODUCTIONS" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 305500648) dumaloq muhi va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilindi.

Insoniyat uzoq asrlar davomida iqtisodiy jihatdan katta qiyinchiliklarni boshidan kechirdi. Tabiiyki, u ana shu iqtisodiy qiyinchiliklar girdobidan chiqish, yashash uchun qulayroq sharoitlar yaratish yo'llarini izladi. Bu intilishlar zahirida son-sanoqsiz urushlar, qabilalararo, mamlakatlararo keskin ziddiyat va nizolar yuzaga keldi.

Olimlarning fikricha, so'nggi olti ming yilda sayyorimizda 5700 marta qirg'inbarot urushlar sodir etilib, son-sanoqsiz odamlar qurbon bo'ldi, mayib-majruhga aylandi.

Iqtisodiy tafakkur sohibi

Shunga qaramasdan, qadimgi Misr, Xitoy, Rim, Eron, Hindiston, Movarounnahr va dunyoning boshqa hududlarida vujudga kelgan yirik imperiyalar jahon sivilizatsiyasining tarixi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Ushbu imperiyalar tufayli insoniyat sivilizatsiyasi ulkan cho'qqilarni zabt etib, ma'lum darajada ishlab chiqarish munosabatlarida yuzaga kelgan ziddiyatlarni bartaraf etishga, iqtisodiy taraqqiyotga, o'zining noz-ne'matlariga bo'lgan ehtiyojlarini qisman bo'lsa-da, qondirishga, iqtisodiy taraqqiyot yo'liga chiqishga erishdi.

Masalan, bundan 2200-yil muqaddam vujudga kelgan Rim imperiyasi jahon amaliyotida misli ko'rilmagan yutuqlarni qo'lga kiritdi va jamiyat iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o'ynagan bebaho meros qoldirdi. Buyuk imperiya doirasida vujudga kelgan vaziyat chorhalarda, katta yo'l bo'yalarida maxsus toshlar, harflar bilan o'yib yozilgan so'zlar orqali yo'lovchilarga yo'l ko'rsatkich belgilarini o'rnatishni taqozo etdi. Ilk bor rimliklar ixtiro qilgan bu belgilar hozirgi kunda butun dunyo bo'ylab yo'lovchilarning harakatini tartibga solish va boshqarishning bebaho quroliga aylandi. Shuningdek, bugun kishilik jamiyatining ajralmas qismiga aylangan quvurlar orqali shaharni ichimlik suvi bilan ta'minlash, ko'chalarni toshlar bilan qoplash asosida yo'lovchilarga qulayliklar yaratish, ko'p qavatli binolar qurib, o'zi uy qurishga imkoni mavjud bo'lmagan aholiga ijaraga berish, ko'p qavatli imoratlarining asosini beton bilan mustahkamlash, moddiy jihatdan qiyalib qolgan aholi qatlamini non bilan ta'minlash asosida ularni moddiy jihatdan quvvatlash kabi oqilona amallar Rim imperiyasi iqtisodiyotidan bizga meros qolgan. Bu imperiyada savdo-sotiq yaxshi rivojlangan va ushbu omil imperiya iqtisodiy qudratining yuksalishiga katta hissa qo'shgan. Ya'ni, moliya tizimi shakllantirilib, tovar-pul munosabatlarida ilk bor banknotalardan foydalanilgan. Tabiiyki, iqtisodiy taraqqiyotda muhim rol o'ynagan bunday ixtirolarni alohida qabila, shahar, mamlakat miqyosida amalga oshirishning imkoni yo'q. Bunday ixtirolar faqat ishlab chiqarish rivojlangan, iqtisodiy qudratli yirik imperiyalar negizida yuzaga kelishi va amaliyotga joriy etilishi mumkin. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, o'z vaqtida Rim imperiyasi hududida dunyo mahsulotining 25-30 foizi ishlab chiqarilgan.

Dunyo e'tirof etgan yirik imperiyalar-dan yana biri bobokolonimiz asos solgan Temur va temuriyalar imperiyasidir.

Bu imperiyaning vujudga kelishi-da ham iqtisodiy omillar asosiy rol o'ynadi. Tahlillarga tayangan holda aytish mumkinki, avvalo, mustaqillikka erishildi, Movarounnahr hududida tarqoq kichik feodal davlat tuzilmalari birlashtirilib, iqtisodiy taraqqiyotga, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga imkoniyat beruvchi markazlashgan yirik davlat barpo etildi.

Vaholanki, Amir Temur hukumat tepasiga kelishidan avval Movaroun-nahr xalqi og'ir iqtisodiy sharoitda hayot kechirishga, yo'qchilik va nochorlikda yashashga mahkum edi. Bunga ichki nizo va ziddiyatlar, xalqning tinka-madorini quritadigan surunkali urushlar,



himoyasiz qolgan mehnatkash xalqning o'ldirilishi, asirga olinib, qul qilinishi, shahar qishloqlarning mo'g'ul istilochilari tomonida talon-toroj qilinishi, ularni himoyaga oladigan kuchli davlatning yo'qligi sababchi edi. Ana shu o'ta og'ir mas'uliyatni Amir Temur o'z zimmasiga oldi va uni sharaf bilan yakuniga yetkizdi. Shuning uchun ham Amir Temurni mo'g'ul istilochilari zulmidan qadri bukilgan, nochorlik va iqtisodiy tanglikka mahkum etilgan xalqini yorug'likka, iqtisodiy taraqqiyot yo'liga olib chiqqan buyuk inson sifatida ulug'laymiz.

Lekin Amir Temur Movarounnahr doirasida markazlashgan davlat barpo qilish bilan cheklanib qolmadi. Davlatning iqtisodiy qudratini oshirish maqsadida qo'shni davlatlarni zabt etish va ular hisobidan o'zining ta'sir doirasini kengaytirish tomon yurdi. U asos solgan imperiya Orol dengizidan Fors qo'tlig'igacha, Qora dengizdan Quyi Volga, Balxash ko'li, Il daryosiga qadar ko'plab mamlakatlarni qamrab oldi. Kichik Osiyo, Misr, Qandahor, Suriya, Hirot, Dehli, Ray, Tabriz, Isfaxon va boshqa bir qator o'lkalarda ushbu imperiya tarkibida edi. Shuncha mamlakatlarni ishg'ol etish, ularni bir davlat doirasida birlashtirish, idora qilish Amir Temurdan juda katta kuch, mahorat va aql-zakovat talab qilgan. U o'ttiz besh yillik hukmronligi davomida umrini harbiy safarlarda, jang maydonlarida o'tkazdi va ularning barhasida g'olib chiqdi.

Tarixiy manbalarda uning tengi yo'q sarkarda, mohir strateg va siyosatdon, davlat arbobi bo'lganligi xususida ko'p yozilgan. Lekin undagi iqtisodiy tafakkur, dunyoqarash, imperiya tarkibidagi mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotida tutgan o'rni, iqtisodiy siyosati hanuzgacha tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolib kelmoqda. "O'zbekiston iqtisodiyotining tarixi: Amir Temur davridan to hozirgi kunga qadar" nomli asarda dastlab Sohibqiron iqtisodiy faoliyatining ayrim jihatlari, uning iqtisodiy siyosatining mohiyatini, saltanat iqtisodiyotini yuksaltirishdagi alohida rolini ochib berishga doir diqqatga sazovor masalalar ko'tarilgan. Ammo uning iqtisodiy qarashlari, siyosati, tafakkurini yoritishda hal etilmagan muammolar hali ko'p topiladi.

Amir Temurning iqtisodiy dunyoqarashi shakllanishida otasining varisatli muhim rol o'ynagan bo'lsa ajabmas. U 16 yoshga to'lganida otasi bo'lg'usi Sohibqironga shunday

vasiyat qiladi: "Imkoniy yetsa, masjid va madrasalar qur, ularni jihazla - mulkingdan bir qismini, bisotining bir ulushini ularga hadya qil. O'g'lim, esingda tut: ko'z oldingda jilva qilib turgan bu dunyo xuddi oltin jomga o'xshaydi. Biroq uning ichi zaharli ilon va chayonlar bilan to'la. Bu jomdan ilonlarning chaqishi-yu chayonlarning nish sanchishidan boshqa narsa kutib bo'lmaydi. Unga ko'ngil berma! Faqat ortidan ezgu amallar, xayrli ishlar-ni qoldirgan insonlarga maqto'v bor, manguilikka daxldor bo'ladi ular". Amir Temurning butun iqtisodiy faoliyatining mazmun-mohiyatini chuqur tahlil qil-sak, u o'zining umri davomida otasi-dan eshitgan ana shu o'g'itlarga to'la va qat'iy rioya qilganligining shohidi bo'lami.

Sohibqiron boshqa hukmdorlard-an farqli o'laroq, umri davomida bunyodkorlik, yaratuvchilik faoliyati bilan shug'ullandi. Chingizxon imperiyasi Movarounnahrda salkam 140 yillik hukmronligi davomida o'zidan birona arziqlik tarixiy yodgorlik obyektlari yoki bunyod etilgan suv inshootlarini meros qoldirmagan. Tarixning guvohlik berishicha, mo'g'ullar hududning iqtisodiy muammolari, sug'orish, obodonlashtirish ishlari bilan umuman shug'ullanma-gan. Ular asosan xalqni talash, mulkini tortib olish, zo'ravonlik, o'lpon undirish bilan shug'ullangan.

Amir Temurning iqtisodiy dunyoqarashi tamoman boshqacha bo'lib, u bunyodkorlik, obodonlashtirish ishlari nafaqat Movarounnahr hududida ham amalga oshirdi. Bu haqda o'zi shunday deydi: "Qay bir joydan bir g'isht o'lsum, o'rni o'n g'isht qo'ydim, bir daraxt kestirasam, o'rni-ga o'nta ko'chat ektirdim".

Amir Temur Movarounnahrda mustaqil davlat barpo etgach, avvalo, mamlakatni og'ir iqtisodiy vaziyatdan xalos etish, uning iqtisodiy mavqeini mustahkamlashga harakat qildi. Mamlakat aholisida mujassam bo'lgan mehnat salohiyatini ro'yobga chiqarishga, mahsulot va xizmatlar hajmini kengaytirish asosida aholining ishlab daromad topishi uchun qulay sharoit yaratishga e'tibor qaratdi. Soliq tizimidagi tartibsizliklarni yo'qotishga intildi. Soliq undirishda tenglik tamoyillarini kuchay-tirdi. Ya'ni, amirlar, soliq yig'uvchilar, kalontarlar tomonidan soliq undirishdagi nohaqliklarga chek qo'ydi.

Soliq siyosatidagi adolatsizliklar-dan aziyat chekayotgan kishilarning xarajatlarini kamaytirib, daromadlarini ko'paytirishga urg'u berdi. Buning samarasida ra'iyatning davlat iqtisodiy siyosatidan, adolatli ekanligidan qoniqishi kuchaydi, davlatni qo'llab-quvvatlashga, sadoqat bilan xizmat qilish-ga moyilligi oshdi.

Soliqlarning rag'batlantiruvchi funk-siyalaridan foydalanishi ta'sirida ishlab chiqarish sur'atlar bilan rivojlandi, tovarlar va xizmatlar hajmi ko'paydi, yangi ish o'rnlari paydo bo'lishiga imkoniyat yaratildi.

Bozorlardagi narx-navoni tartibga solishni, ayniqsa, aholi uchun birinchi darajali ahamiyatga ega oziq-ovqat mahsulotlari narxini qattiq nazorat-ga oldi. Saltanat hududlaridagi yuk tashish karvonlarining xavfsizligini ta'minlashga e'tibor qaratdi.

Uning o'zi zabt etgan mamlakatlarga nisbatan amalga oshirgan iqtisodiy siyosati ham tahsinga loyiq. Bu haqda o'zining "Tuzuklar"ida shunday yozadi: "...Amr qildimki, xarob bo'lib yotgan yerlarda korizlar qursinlar, buzilgan ko'priklarni tuzatsinlar, ariqlar va daryolar ustiga (yangi) ko'priklar solsinlar. Yo'larga kuzatuvchi va soqchilar qo'ysinlar...".

Murod MUHAMMEDOV,
Mamayun PARDAYEV,
SamISI professorlari.

(Davomi keyingi sonlarda)

Tarix va talqin

Bobom qatag'on qurboni edi...

Bizga yozishlaricha...

**Bobom - Nuriddin Kamolov
1909-yilda Samarqand shahrining
Kulolon mahallasida dunyoga
kelgan.**

U o'z davrida eski maktab an'analari va yangi maktabning yutuqlaridan bahramand bo'lgan. Maktabni tugatib, 1927-yilda o'qituvchilar tayyorlash texnikumida tahsil oldi. Texnikumni tamomlagach, bir muddat yoshlarga ta'lim berdi.

Muallimlik davrida uni ilmga bo'lgan qiziqish bir zum ham tark etmadi. O'rta Osiyo davlat universitetining tarix-iqtisod fakultetida o'qishni davom ettirdi. 1932-yilda universitetni tamomlab, oliy ta'lim dar-gohlarida talabalarga ta'lim berdi. 1939-yil-gacha bir qator oliy ta'lim muassasalari va texnikumlarda rahbarlik lavozimlarida mehnat qildi. Xususan, Urganch davlat o'qituvchilar tayyorlash instituti direktori lavozimida ishladi.

E'tiborlisi, u yoshlarga ta'lim berish va rahbarlik ishi bilan bir paytda Fayzulla Xo'jayev faoliyatiga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar olib bordi. 1939-yilda SSSR Fanlar akademiyasiga yo'llanma bilan dissertatsiya ishlari yakunlash maqsadida yuborilgan bo'lsa-da, ilmiy izlanishlari o'sha davrda siyosiy qatag'onga uchragan Fayzulla Xo'jayev haqida bo'lganligi sababli 1940-yilda u ham qamoqqa olinadi. Uch yilga ozodlikdan mahrum etildi. Ammo ko'p o'tmay, 1941-yilning dekabrda SSSR Oliy soveti prezidiumi farmoniga muvofiq ozod etiladi. U 1942-yil yanvarida armiya safiga chaqiriladi. 1943-yil fevralda kasallanib, demobilizatsiya qilinadi. Urush tugagach, yana o'qituvchilik qiladi. Ammo siyosiy ayblov bilan qamalanganligi sabab ko'plab qarshiliklarga, turli ig'vo yu bo'htonlarga uchraydi.

1950-1954-yillarda Samarqand moliya

texnikumida tarix fani o'qituvchisi bo'lib ishlaydi. Ta'tilga chiqqan paytda o'quv yurti direktori uning bir paytlar qamalanganligini bahona qilib, vazifasidan bo'shatish haqida buyruq chiqaradi. Bobom uni nima uchun qamaganlarini, SSSR Oliy soveti prezidiumi qarori bilan ikki yildan so'ng ozod qilinganligi, urush yillari armiya safida xizmatda bo'lganligi haqida xat yozib, O'zSSR Oliy sudi va Samarqand viloyat partiya komitetiga yo'llaydi. Respublika Oliy sudi ishni ko'rib chiqib, tarkibida jinoyat alomatlari bo'lmaganligi sababli bobomni oqlaydi va u ishiga qayta tiklanadi.

Bobom 1968-yilgacha Samarqanddagi turli texnikum va maktablarda yoshlarga tarix fanidan dars beradi. Qamoqda o'tkazgan azobli kunlar, turli bo'htonlar, nohaq ishdan olinishlar uning sog'lig'iga ta'sir etmay qolmaydi. Uning tarixchi olim bo'lish haqidagi orzulari ham ko'nglida armon bo'lib qoladi.

Bobom Nuriddin Kamolov 1972-yilda 63 yoshida vafot etdi.

Bugun bir umr yoshlarni bilimli qilish, ularning siyosiy tafakkurini o'stirishga harakat qilgan bobomning hayoti va faoliyatini o'rganib, shunga amin bo'ldimki, u ham mustabid tuzum qatag'onining qurboni edi...

Rayhona ZOIROVA,
SamDU talabasi.

Ibn Sino quyoshga qiyoslagan ne'mat

Ona suti bolaning sog'lom va barkamol bo'lib rivojlanishi uchun muhim oziq. Uning tarkibida yuzdan ziyod foydali mikroelement bor. Ular bolaning to'yib oziqlanishi uchun yetarli, hatto suv o'rnini bosadi. Qolaversa, ona suti immunoqatag'on bo'lib, immunitetni mustahkamlaydi, chaqaloqni turli infeksiyalardan himoyalaydi, onadan bolaga immunitet o'tishini ta'minlaydi.

Buyuk alloma bobomiz Abu Ali ibn Sino ona sutining foydali jihatlari inobatga olib, uni quyosh nuriga qiyoslaydi. Zamonaviy tibbiyotda ham ona sutining shifobaxsh xususiyatlarini alohida e'tirof etiladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti chaqaloqlarni ona suti bilan boqish bo'yicha 10 qadam tamoyilini targ'ib etib kelyapti. Jumladan, mamlakatimiz ham ushbu tashabbusga qo'shilib, bu borada targ'ibot-tashviqot ishlari olib bormoqda.

Bu qoidalarning ba'zilariga to'xtalib o'tsak. Birinchidan, bola tug'ilishi bilan ilk yarim soat ichida ona suti emizishi kerak. Tug'ruq majmualarida bu masalaga jiddiy e'tibor qaratiladi. Ona-bola uyiga qaytgach, bolani ko'krak suti bilan oziqlantirish jarayonini kuzatish, bu borada onaga maslahat va tavsiyalar berib borish patronaj hamshiralari zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi. Buning uchun patronaj hamshiralari quyidagi muhim qoidalardan xabarдор bo'lishlari lozim. Xususan, chaqaloqni soatga qarab emas, chaqaloq talab qilganda (tez-tez) emizish kerak. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarni 3-3,5 soat oralqida oziqlantirishni amalga oshirish murakkab. Chaqaloqning oshqozon hajmi tez-tez va kam miqdorda ozuqa qabul qilishga moslashgan, bir vaqtning o'zida 150-200 millilitr sutni qabul qilishi fiziologik jihatdan to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun yangi tug'ilgan chaqaloq birinchi oylarda ko'krakni tez-tez, kecha-kunduz davomida 10-15 martagacha talab qiladi. Ona va bola

doimo birga bo'lishi lozim. Ona taftini his qilib uxlash bola ruhiyati uchun juda foydali. Bu ona suti yaxshi ishlab chiqilishiga ham yordam bo'ladi. Emizish paytida bir-biriga yaqin ikkita inson o'rtasida emotsional aloqa o'rnatiladi. Bu go'dakka himoyalanganlik, qulaylik va tijoratlik hissiini baxsh etadi. Agar bola haftasiga taxminan 150 gramm vazn yig'ayotgan bo'lsa, bu uning ko'krakni me'yorida emayotgani belgisi deyish mumkin.

Emizish ona sog'lig'i uchun ham katta foyda keltiradi. Avvalo, ketma-ket homiladorlikning oldi olinadi. Onaning ko'krak va bachadon saratoni, artrit va yurak-qon tomir kasalliklariga chalinish ehtimoli kamayadi, shuningdek, emizikli ona ortiqcha vazni tez yo'qotadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti mutaxassislarining ta'kidlashicha, ko'krak sutining yo'qligi yoki uning yetishmasligi shunchaki bolani ko'krakka noto'g'ri tutish va muntazam emizmaslik oqibatini, xolos. Laktatsiyasiz, ya'ni sut kelmaydigan onalar bo'lmaydi (95 foiz ayollarda ko'krak suti me'yorida ishlab chiqiladi).

Ayolning ruhiy ahvoli yaxshi bo'lsa, oilada sog'lom muhit o'rnatilsa, ona suti kelishida muammolar bo'lmaydi, aksincha, turli stress, charchoq onada sut hosil bo'lishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ra'no SAYFIYEVA,
**Samarqand shahridagi 3-tug'ruq
majmuasi chaqaloqlar bo'limi
boshlig'i, oliy toifali neonatolog.**



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yhatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 11 766 nusxada chop etildi. Buyurtma 488. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'lumida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

O'.XUDOYBERDIYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



9 1 7 7 2 0 1 0 6 6 7 0 0 9

Sotuvda narxi kelishilgan holda